

AJER
AKADEMIC JOURNAL OF
EDUCATIONAL RESEARCH

ISSUE 4

**AKADEMIC JOURNAL
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

April 2025

WWW.AJERUZ.COM



International Scientific Journal
AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
April 2025

Tashkent 2025

QO'LNING SO'ZSIZ TILI: HAQORATGA AYLANADIGAN IMO-ISHORALAR

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistri
diyorturgunpolatov@gmail.com

CHDPU O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Q.A.Mo'ydinov taqrizi asosida

Annotatsiya: maqolada odamlar orasida haqorat sifatida qabul qilinadigan harakatlar to'g'risida ayrim mulohazalar keltirilgan (rasmlar www.alamy.com saytidan olingan).

Kalit so'zlar: haqorat, ekspert, so'kinish, kamsitish, imo-ishora, lingvistik ekspertiza, lingvokriminalistika.

Annotation: The article presents some considerations on actions that are perceived as insults among people (images taken from www.alamy.com).

Keywords: insult, expert, swearing, discrimination, gesture, linguistic examination, linguistic forensics.

KIRISH

Dunyo miqyosida globallashuv, integratsiyalashuv va transformatsiyalashuv davrida o'zgalarning obro'sini tushirishga, qadr-qimmatini kamsitishga qaratilgan ma'lumotlarni qasddan tarqatish, haqoratlash hamda insonlarning sha'nini toptash kabi holatlar har kungidan-da ko'payib bormoqda. Ayrim shaxslarga nutqiy faoliyat (og'zaki va yozma), harakat va holat, xususan, imo-ishoralar juda qulay, anonim va shu bilan birga jazosiz tuyuladi. Ushbu kabi holatlar lingvistik ekspertizani talab qilishi tabiiy hol, ammo obro'sizlantirish deb qaralayotgan bunday faoliyat mahsullari uchun xulosalar berishning ilmiy-nazariy asoslari yetarli darajada o'rganilmagan. Aynan biz tadqiq qilayotgan mavzu ham shunday muammoli vaziyatlar va ularning til bilan bog'liq bahsli masalalarini imkon qadar hal etishga erishishga qaratilgan.

Yaratilgan qonunlar nimani qilish mumkin-u, nimani qilish mumkin emasligini, umuman olganda, ruxsat va taqiqlarni belgilab beradi. Jinoyat kodeksida shaxsni haqorat qilish mumkin emasligi va unga belgilangan tartibda jazo chorasini tayin ekanligi keltirib o'tilgan. Ammo, so'z, ibora, gap, xatti-harakat va imo-ishoraning haqorat bo'lishi aniq tartibda chegaralab berilmagan. Bu esa o'z navbatida bir necha fanlar doirasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan mutaxassis (ekspert)lar tomonidan amalga oshiriladigan vazifa hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Shaxsning qadr-qimmatini kamsituvchi haqorat mazmunidagi xatti-harakat (imo-ishora)larga to'xtalishdan avval haqorat mazmuniy birligining ma'nolarini ko'rib chiqamiz. O'zbek tilining izohli lug'atida **"Haqorat"** [a. – pastlik, razillik, tubanlik; pastkashlik; tahqirlash]

1. Kishining or-nomusi, shaxsiyatini pastga uradigan, tahqirlovchi ma'no-mazmunli so'z, gap.

2. Shunday ma'no-mazmunli muomala, xatti-harakat, holat[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ko'rinib turganidek, haqorat faqatgina nutqiy faoliyat mahsuli orqali ro'y beradigan hodisagina emas, balki xatti-harakat va imo-ishoralar orqali ham namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan faoliyat ekan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida 140-modda aynan haqorat qilish va uning huquqiy oqibatlari haqida bo'lib, "Haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash..."[2] sifatida qaralgan. Buni tadqiqotchilarning quyidagi fikrlari bilan yanada mustahkamlash mumkin. Ekspert N.Y.Najmidinova "Haqorat – bu shaxs sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish maqsadida odobsiz shaklda ifodalangan gap yoki xatti-harakat"[3], deya baholaydi. Boshqa bir tadqiqot ishida "Haqorat – og'zaki yoki yozma ko'rinishda bo'lishi mumkin bo'lgan mental birlik bo'lgan tushunchadir"[4] degan xulosaga keladi. N.Zamonov fikricha, "Bunda shaxs uyatsiz ravishda qoralanadi, unga salbiy baho beriladi. Haqorat qilish so'kinish, kamsitish, turli xil qiliqlar qilish orqali va boshqa shakllarda ifodalanib, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini yerga urishga qaratilgan bo'lishi kerak"[8].

Ko'rinib turganidek, bir necha tadqiqotchilarning ishlarida haqorat xatti-harakat, imo-ishora va qiliqlar orqali ifodalanishi mumkinligi keltirib o'tilgan. Shunga tayanib, shaxsning sha'ni va obro'sini kamsituvchi vositalarga harakat va qiliqlarni qo'shish uchun yetarlicha asos mavjud ekan. Ushbu vositalardan bir nechtasini tahlilga tortishga harakat qilamiz:


1. Ko'satkich barmoqni peshonaning yon tarafiga qo'yish va ikki yon tarafga qisqa harakatlantirish bilan o'sha insonning aqli pastligi yoki noo'rin harakat qilayotganiga ishora qilinadi (1–rasm). Bu ishora nafaqat bizning madaniyatlarda, balki boshqa ko'plab xalqlarda ham insonning fikrlashi va qaror (xulosa yoki to'xtam)lari noto'g'ri ekaniga ishora qilinadi. Bu ishoraga madaniy konteks sifatida qaralganda turli xalqlarda mazmuni o'xshash bo'lsa-da, ifoda shakli farq qilishi mumkin. Masalan, ayrim joylarda peshonaga qoqish yoki chakkaga urish orqali ham shu ma'no anglashilishi mumkin.

"Aqling joyidami?" deb kinoya qilish yoki "tentak" sifatida masxara qilish maqsadida ishlatiladi. Ta'kidlash lozimki, bu ishora orqali insonning aqliy faoliyati yoki ruhiy faoliyati shubha ostiga olinadi deb baholash mumkin.



1-rasm.

2. Qo‘lning o‘rta barmog‘ini ko‘rsatish (2-rasm). Dunyoning deyarli barcha madaniyatlarida insonning jinsiy a‘zosiga ishora qilinib, haqorat sifatida qaraladi. Bu ishoraning tarixi qadimgi Rim va Yunon madaniyatlariga borib taqaladi. Rimliklar o‘rta barmoqni “*digitus impudicus*” (uyatsiz barmoq) deb atashgan. Og‘zaki nutq jarayonida, xususan, kinolar, sport musobaqalari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda asosan shaxsiy norozilik, g‘azab, hurmatsizlik yoki provakatsiya ifodasi (*ba‘zi o‘rinlarda hazil ma‘nosida ham – bu haqida quyida batafsil ma‘lumot beramiz*) sifatida qo‘llanib kelinadi. Ma‘lumot o‘rnida aytish joizki, mashhur beysbol o‘yinchisi Old Hoss Radburn 1886-yilda jamoadoshlari bilan rasmga tushayotib, kameraga o‘rta barmog‘ini ko‘rsatgan – bu holat tarixda suratga tushgan birinchi bunday ishora sifatida qayd etilgan.



2-rasm.

3. “OK” ishorasi (bosh barmoq bilan ko‘rsatkich barmoqning doira hosil qilinishi) (3-rasm). Bugungi kunda “OK” so‘zini ishlatish urf bo‘lgan. SMS yoki messenjerdagi yozishmalarda “mayli”, “yaxshi”, “tushundim” demasdan “Ok” deb yozishadi. Qiynalib o‘tirish kimga yoqadi? Ikkitagina harf – OK. Lekin nima deyishayotganini o‘zlari ham bilmaydilar. “Okey”ning so‘z ma‘nosi va imo-ishora ma‘nosi bor. Ikkisi ikki xil tarixga va ma‘noga ega.

Birinchi “OK” inglizcha “all correct” – hammasi yaxshi degani. Ilk marta esa “orl korrek” deb ishlatilgan. AQShda prezident Martin Van Byurenning saylov kampaniyasida ham ishlatilgan. Old Kinderhook (ko‘hna Kinderxuklik) so‘zining qisqartmasi keyinroq O.K.ga aylanib ketadi.

Ikkinchi “OK” belgisi esa qadimdan mavjud. U Gretsiyada “sevgi izhori”ni, Buddizmda “ichki xotirjamlik”ni anglatadi, Yaponiyada “tanga” ma‘nosida, Yevropada

avval “uzuk” ma’nosida ishlatiladi. G’avvoslarning so‘zlashuvida esa “hammasi joyida” degani. Lekin Fransiya va Tunisda “Okey” belgisini ko‘rsatsangiz “nol”, “hech nimaga arzimaydi” degan ma’no anglatadi. Gretsiya va yaqin Sharqda, Argentina, Chili, Salvador, Meksika, Germaniyada esa butunlay haqoratli. “Okey” belgisini ular “Sen ahmoqsan!” deb tushunadi, qo‘pollik, uyatsiz imo-ishora deb qabul qilishadi. Arablarda esa “yomon ko‘z”, “la’nat” belgisi[9] sifatida qoraladi.



3-rasm.

NATIJALAR

Ma’lum bir gapni haqorat deb hisoblashda u gapning haqiqatga mos yoki yolg‘on ekanligi ahamiyatga emas, uning beodob shaklda, axloq normalariga zid ravishda ifoda etilishi muhim. Masalan, nogirongligi bor bo‘lgan insonga “sen eshitmas, karsan”, deyish mazmunan haqiqatga mos kelar, lekin bu beodoblarcha birovni sha’n va qadr-qimmatini kamsitib aytilayotgani tufayli haqorat hisoblanishi kerak. Shuni inobatga olish kerakki, har qanday tahqirlash ham haqorat deb topilavermaydi. Bunda shaxsning sha’n va qadr-qimmatini yerga urilishi kerak va bu jamiyatdagi axloq qoidalariga zid ravishda amalga oshirilishi zarur. Deylik, shaxs o‘zini o‘zi juda yaxshi ko‘radi. U o‘ziga nisbatan aytilgan konstruktiv tanqidni ham tahqirlash (yerga urish) sifatida baholab, buni haqorat deb qabul qilishi mumkin. Ammo bunday qilmish haqorat hisoblanmaydi. Sababi mazkur vaziyatda haqiqatga zid bo‘lmagan tanqid orqali shaxsga nisbatan salbiy baho berilayotgani rost, ammo u nomaqbul shaklda – beodoblik bilan ifodalanmagan.

So‘kish va haqorat so‘z, xatti-harakatni qo‘llash axloqiy nuqtayi nazardan jamoat ongi tomonidan qoralanadi, ammo bu birlik va vositalarni mutlaq taqiqlangan deyish xato bo‘ladi. Masalan, jamoat ongi ulardan foydalanishni oqlashi mumkin bo‘lgan holatlar ham mavjud (*jumladan, do‘stlar davrasida yumoristik ruhda, ijodkorning badiiy matndagi personajni tavsiflashi uchun, so‘z o‘yini maqsadlarida, hazil-mutoyiba maqsadlarida va shunga o‘xshash boshqa holatlarda*)[3].

MUHOKAMA

Huquqni muhofaza qilish organlari bilan ishlash amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, lingvokriminalist mutaxassislar haqorat belgilarini aniqlash, inson sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish bo‘yicha uslubiy tavsiya va ko‘rsatmalarga juda ham muhtoj.

Shu nuqtayi nazardan, ba'zi lingvist tadqiqotchilar haqorat mazmuniy birligini ifoda qiluvchi leksik birliklar, xususan, xatti-harakat, imo-ishora va qiliqlar lug'ati (ro'yxati)ni tuzishni taklif qiladilar. Shubhasiz, bunday lug'atlarni tuzishga to'la imkoniyatlar mavjud. Lekin bunda leksik birliklarning kontekstda va xatti-harakatlarning nutqiy vaziyatlarda bajaradigan vazifasi to'la aks etmasligi mumkin. Shuningdek, har bir leksik birlikka misollar keltirish, ma'lum vaziyatda xatti-harakatlar haqorat sifatida qaralishi va boshqa vaziyatda esa o'zgacha vazifani bajarishi mumkin bo'lgan aniq misollarni qayd qilish juda ham murakkab ish hisoblanadi.

XULOSA

Haqorat va so'kinish mazmunidagi har qanday nutqiy faoliyat vositalari shaxsni obro'sizlantirish, qadr-qimmatini kamsitish xarakteriga ega bo'lib, bunda faqat o'zbek tilidagi birliklardan emas, turli chet tillari, lahja elementlari, ishoralardan foydalanish ham ko'zga tashlanishi mumkin. Lingvistik ekspertiza jarayonida haqorat va so'kinish mazmunini ifoda etuvchi turli tillardagi aralash materiallarni ekspertiza qilishda haqorat va so'kinishning salbiy bo'yoqdorlik darajasiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Shu bilan birga, haqorat mazmunli faoliyat va uning vositalarida huquqiy va lingvistik jihatlar mavjud bo'lib, ekspertiza jarayonida lingvo-ekspert ana shu darajalarni farqlashi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, haqorat mazmunli xatti-harakatlar jamiyatda nafaqat shaxsiy munosabatlarga, balki ijtimoiy barqarorlikka ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bunday xatti-harakatlar bevosita inson qadr-qimmatini, obro'si va sha'ni buzilishiga olib kelishi tayin. Natijada nizo va tushunmovchiliklar boshlanib (avj olib), jamiyatda ishonch va hurmat tamoyillari zaiflashishga olib keladi. Hozirgi davrda, ayniqsa, raqamli makonning kengayishi haqoratning yangi ko'rinishlarini keltirib chiqarmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda anonimlik imkoniyati ayrim shaxslarni mas'uliyatsiz harakatlarga undashi, kiberbulling[10] va onlayn zo'ravonlik holatlarini ko'paytirishi mumkin. Shu boisdan, huquqiy chora-tadbirlarni kuchaytirish, ta'lim orqali axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish zarurati ortib bormoqda. Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, haqoratga qarshi kurashda jamoatchilik nazorati va xabardorlik kompaniyalari samarali vositalardan biridir. Bunda "oilaviy tarbiya-ta'lim tizimi-ommaviy axborot vositalari" tizimi muhim rol o'ynaydi. Bizning ushbu kichik tadqiqot ishimiz ham shu maqsadga muayyan darajada xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000ga yaqin so'z va so'z birikmasi. J.V. Shukrona – H/mas'ul muharrir A.Madvaliyev. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2020. 521-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Batafsil: <https://lex.uz/docs/-111453>

3. N.Y.Najmiddinova. “Shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli matnlarda lingvistik ekspertiza o‘tkazishning kriminolingvistik asoslari”. O‘zbekiston sud ekspertizasi. 2022/2. 37-38-betlar.

4. N.Y.Najmiddinova. “Haqorat” mazmunidagi matnlar bo‘yicha lingvistik ekspertiza o‘tkazish jarayoni. O‘zbekiston sud ekspertizasi. 2023/2. 42-bet.

5. D.R.Turg‘unpo‘latov. Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq. Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida” mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 2024. 135-138-betlar.

6. J.N.O‘rozov. Konfliktli matnlarni lingvokriminalistik tadqiq qilish turlari tavsifi. O‘zbekiston sud ekspertizasi. 2022/3. 31-35-betlar.

7. J.N.O‘rozov. Lingvokriminalistika amaliy tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishi sifatida: shakllanishi va taraqqiyoti. O‘zbekiston sud ekspertizasi. 2024/1. 12-19-betlar.

Internet sahifalari:

8. www.hudud24.uz sayti. Batafsil qarang: <https://hudud24.uz/news/farki-bor-khakorat-va-tukhmat-bularni-nima-farklab-turadi>

9. www.yoshlarovozi.uz sayti. Batafsil qarang: <https://yoshlarovozi.uz/oz/news/til-bilimi>

10. www.wikipedia.org sayti. Batafsil qarang: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kiberbulling#:~:text=Internetda%20bezorilik%2C%20yoki%20kiberbulling%2C%20%E2%80%94,muddat%2CKibermadaniyatning%20bir%20qismi%20bo%CA%BBlgan>



Nashr qilingan sana: 29.03.2025.
Shrift: "Times New Roman".

“ACADEMIC JOURNAL” MCHJ

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog‘iston ko‘chasi, 116/6.
www.ajeruz.com, info@ajeruz.com, +998950457172